


AHOLINING INFLYATSION KUTILMALARI

2025
MAY

jami **3 857** ta
respondent
qatnashdi



May oyida aholining kelgusi 12 oylik inflyatsion kutilmalari o'tgan oyga nisbatan biroz pasayib, **13,7** foizga teng bo'ldi.



| Inflyatsion kutilmalarning omillari (respondentlar ulushi, foizda) | 2024 | | | | | | | | 2025 | | | | |
|---|------|------|-----|-----|-----|-----|-----|-----|------|-----|-----|-----|--|
| | Iyun | Iyul | Avg | Sen | Okt | Noy | Dek | Yan | Fev | Mar | Apr | May | |
| Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi | 54 | 51 | 49 | 45 | 47 | 51 | 56 | 57 | 63 | 59 | 59 | 57 | |
| Yoqilg'i va energiya narxining qimmatlashishi | 47 | 44 | 46 | 47 | 46 | 51 | 57 | 50 | 52 | 48 | 47 | 49 | |
| Valyuta kursining o'zgarishi | 41 | 39 | 42 | 50 | 51 | 51 | 55 | 46 | 41 | 39 | 38 | 37 | |
| Transport xarajatlarining oshishi | 28 | 26 | 26 | 28 | 26 | 30 | 35 | 30 | 31 | 28 | 29 | 32 | |
| Monopoliya va narxlarning sun'iy oshirilishi | 28 | 28 | 27 | 29 | 28 | 31 | 33 | 25 | 32 | 26 | 26 | 26 | |
| Asosiy oziq-ovqatlarning qimmatlashishi | 21 | 20 | 23 | 25 | 24 | 26 | 26 | 26 | 28 | 28 | 26 | 25 | |
| Ish haqi va nafaqalarning oshishi | 26 | 22 | 40 | 39 | 31 | 28 | 28 | 22 | 23 | 20 | 18 | 22 | |

Kelgusida narxlarga oshiruvchi bosim ko'rsatishi mumkin bo'lgan asosiy omillar sifatida **yoqilg'i** va **energiya resurslari qimmatlashishi**, **transport xarajatlarining qimmatlashishi**, **ish haqi va nafaqalar oshishini** qayd etgan aholi respondentlari ulushi ko'paygan bo'lsa, **kommunal xizmatlar qimmatlashishi** va **valyuta kursi o'zgarishini** omil sifatida ta'kidlagan aholi respondentlari ulushi kamaygan.


TADBIRKORLARNING INFLYATSION KUTILMALARI

2025
MAY

jami 1 753 ta
respondent
qatnashdi



Tadbirkorlik subyektlarining inflyatsion kutilmalari o'tgan oyga nisbatan sezilarsiz oshib, **12,9** foizni tashkil etdi.



| Inflyatsion kutilmalarning omillari (respondentlar ulushi, foizda) | 2024 | | | | | | | | | | | |
|---|------|------|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|
| | Iyun | Iyul | Avg | Sen | Okt | Noy | Dek | Yan | Fev | Mar | Apr | May |
| Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi | 53 | 50 | 47 | 46 | 42 | 49 | 52 | 54 | 58 | 52 | 55 | 54 |
| Yoqilg'i va energiya resurslari qimmatlashishi | 41 | 42 | 45 | 44 | 42 | 48 | 49 | 49 | 50 | 45 | 46 | 48 |
| Valyuta kursining o'zgarishi | 42 | 38 | 42 | 51 | 50 | 51 | 52 | 51 | 43 | 43 | 43 | 40 |
| Transport xarajatlarning oshishi | 29 | 31 | 31 | 31 | 29 | 32 | 34 | 32 | 34 | 31 | 31 | 37 |
| Xomashyo narxlarining qimmatlashishi | 26 | 25 | 26 | 27 | 25 | 25 | 25 | 25 | 27 | 25 | 27 | 28 |
| Soliq yukining yuqoriligi | 31 | 28 | 27 | 27 | 23 | 25 | 27 | 24 | 27 | 26 | 27 | 27 |
| Ish haqi va nafaqalarning oshishi | 22 | 17 | 38 | 38 | 30 | 29 | 25 | 26 | 22 | 23 | 23 | 24 |

Kelgusida narxlarga oshiruvchi bosim ko'rsatishi mumkin bo'lgan asosiy omillar sifatida **yoqilg'i va energiya resurslari qimmatlashishi, transport xarajatlari** hamda **xomashyo narxlarini qimmatlashishi, ish haqi va nafaqalar oshishini** qayd etgan tadbirkorlar ulushi ko'paygan bo'lsa, **kommunal xizmatlar qimmatlashishi va valyuta kursi o'zgarishini** omil sifatida belgilagan tadbirkorlar ulushi kamaygan.



INFLYATSION KUTILMALAR – SOHALAR KESIMIDA

2025
MAY

Respondentlar
Aholi – 3 857 ta
Tadbirkorlar – 1 753 ta



Aholining yuqori inflyatsion kutilmalari **ishlab chiqarish** sohasi vakillari tomonidan bildirilgan bo'lsa, kelgusida narxlar shakllanishi bo'yicha nisbatan past kutilmalar **turizm** sohasi vakillari tomonidan qayd etildi.



Tadbirkorlarning yuqori inflyatsion kutilmalari **tashish xizmati** sohasida faoliyat olib boradigan korxonalar tomonidan qayd etilgan bo'lsa, kelgusida narxlar shakllanishi bo'yicha nisbatan past kutilmalar **hunarmandchilik** sohasida kuzatildi.


INFLYATSION KUTILMALAR – HUDUDLAR KESIMIDA

2025
MAY

Respondentlar
Aholi – 3 857 ta
Tadbirkorlar – 1 753 ta



Aholi inflyatsion kutilmalarining yuqori ko'rsatkichi **Toshkent shahrida** kuzatilgan bo'lsa, nisbatan past inflyatsion kutilmalar **Navoiy viloyatida** istiqomat qilayotgan aholi tomonidan qayd etildi.



Tadbirkorlik subyektlarining yuqori inflyatsion kutilmalari **Sirdaryo viloyatida** kuzatilgan bo'lsa, nisbatan past kutilmalar **Qoraqalpog'istonda** faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar tomonidan qayd etildi.


INFLYATSION KUTILMALAR (AHOLI)

2025
MAY


jami 3 857 ta
respondent
qatnashdi



Daromadlari 7 mln soʻmdan yuqori boʻlgan aholining inflyatsion kutilmalari nisbatan yuqori darajada shakllandi.



Hududlar kesimida aholining inflyatsion kutilmalari boʻyicha javoblar taqsimoti





SEZILGAN INFLYATSIYA (AHOLI)

2025
MAY

jami **3 857** ta
respondent
qatnashdi



May oyi yakunlariga ko'ra, aholi tomonidan sezilgan inflyatsiya darajasi o'tgan oyga nisbatan sezilarsiz tezlashib, **14,5** foizni qayd etdi.



Sezilgan inflyatsiya darajasining yuqori ko'rsatkichi **Toshkent shahrida** qayd etilgan bo'lsa, nisbatan past sezilgan inflyatsiya darajasi **Navoiy viloyatida** kuzatildi.


SEZILGAN INFLYATSIYA OMILLARI (AHOLI)

2025
MAY

jami 3 857 ta
respondent
qatnashdi



Aprel-may oylarida aholi tomonidan narxlarida yuqori o'sish kuzatilgan asosiy turdagi tovar va xizmatlar




SEZILGAN INFLYATSIYA (AHOLI)

2025
MAY

jami 3 857 ta
respondent
qatnashdi



Daromadlari 7 mln soʻmdan yuqori boʻlgan aholining sezilgan inflyatsiya darajasi nisbatan yuqori shakllandi.



Aholi tomonidan yuqori sezilgan inflyatsiya darajasi **ishlab chiqarish** sohasi vakillari tomonidan bildirilgan boʻlsa, nisbatan past sezilgan inflyatsiya darajasi **umumiy ovqatlanish** sohasi vakillari tomonidan qayd etildi.